

OILA MUSTAHKAMLIGI QONUN NIGOHIDA

*Muxammedova Aydin**Namangan davlat universiteti, yurisprudentsiya fakulteti
2-bosqich talabasi**“Oilaviy baxt bu-eng ulug‘ saodatdir”
Sh.M.Mirziyoyev*

Annotatsiya - Oila-huquqiy munosabatlarda ham shaxsiy, ham mulkiy manfaatlar bir xil tarzda ahamiyatga ega. Ularning har ikkalasi ham o‘ziga xos huquqiy himoya vositalari qo‘llanilishini talab etadi. Oila-huquqiy himoyani ro‘yobga chiqarishda oxir oqibatda prosessual-huquqiy vositalarsiz samarali natijaga erishib bo‘lmaydi. Demak, oila huquqiy himoya o‘z navbatida fuqarolik-huquqiy himoya, prosessual vositalar bilan uzviy bog‘liq ravishda amalga oshirilishi lozim. Shu sababli ham ushbu mavzuning dolzarblii o‘zining ilmiy-nazariy va amaliy negizlariga ega.

Kalit so‘zi: Oila, oilaviy munosabatlar, xotin-qizlar, ota-onalar, ota-onalarhaq-huquqlar, qadr-qimmat.

Аннотация - В семейно-правовых отношениях одинаково важны как личные, так и имущественные интересы. Оба требуют конкретных средств правовой защиты. В конечном итоге эффективные результаты не могут быть достигнуты без процессуально-правовых средств в осуществлении семейно-правовой защиты. Поэтому семейно-правовая защита, в свою очередь, должна осуществляться в неразрывной связи с гражданско-правовой защитой и процессуальными средствами. По этой причине актуальность данной темы имеет свои научно-теоретические и практические основания.

Ключевые слова: Семья, семейные отношения, женщины, родители, родительские права, достоинство.

Annotation - In family law relations, both personal and property interests are equally important. Both require specific remedies. Ultimately, effective results cannot be achieved without procedural means in the implementation of family law protection. Therefore, family law protection, in turn, must be carried out in close connection with civil law protection and procedural means. For this reason, the relevance of this topic has its own scientific, theoretical and practical grounds.

Key words: Family, family relations, women, parents, parental rights, dignity.

KIRISH. Har bir inson o‘z uyini va oilasini sevadi va qadrlaydi. Axir, uy o‘zining qal’asi hisoblanadi, u yerda siz har qanday hayot qiyinchiliklaridan yashirinishingiz mumkin va qiyin paytlarda doim tushunadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan odamlar

davrasi yani oila. Va har birimiz uchun uning roli juda katta. Zero, insonning barcha birinchi his-tuyg‘ulari va g‘oyalari, u atrofdagi dunyoni endigina anglay boshlagan oila bilan bog‘liq. Va keyinchalik, sevgi va g‘amxo‘rlik kabi insoniy tushunchalar oilada shakllanadi. Oilani jamiyatning kichik vatani deb atasiga ajab emas. Unda inson shaxsi shakllanadi, shaxs tarbiyasi amalga oshadi. Shuning uchun, bu odatda odamning qanday oilaga ega bo‘lganiga va u qanday bo‘lganiga bog‘liq. Men uchun eng qadrli mustahkam qo‘rg‘on, oilam.

ASOSIY QISM. “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir¹”

“Oila” — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni, qolaversa, xalqimiz ma’naviy merosining avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlovchi omildir. Shu tufayli oilani qo‘llab-quvvatlash masalasi davlatimizning doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

Oila qanchalik mustahkam bo’lsa jamiyat ham shunchalik mustahkam bo’ladi va rivojlanadi. Ma’lumki 15-may kuni, jahon miqqosida Xalqaro oilalar kuni (International Day of Families) nishonlanadi. Ushbu bayram BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1993-yil 20-sentyabrdagi “Xalqaro oila yili to‘g‘risida”gi rezolyusiyaga muvofiq 1994-yilning 15-mayidan buyon muntazam ravishda nishonlanib keladi. Lekin hamma oilada ham ayollarning teng huquqligi, ularning haq-huquqlari tan olinavermaydi, kamisitiladi kaltaklanadi, yer uruladi, qadr-qimmati oyoq osti qilinadi, xo’rlanadi.

Demokratik davlatda esa xotin-qizlarning haq-huquqlari davlat himoyasida va gender tengligi mavjud. Demokratik davlat bo‘lmish vatanimiz O‘zbekistonda ham xotin-qizlarning huquqlari, qadr-qimmati ulug‘lanadi va ular uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Davlatimizda oilani mustahkamlash, xotin-qizlarga zo‘ravonliklarni oldini olish maqsadida bir qancha qonunlar, qarorlar qabul qilindi, oila institutlari yaratildi. Misol uchun “Oila kodeksi”, “xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi prezidentimiz 2022- yil 7-martdagи farmoni bunga misol bo’ladi².

¹ O’zb Res Konstitutsiyasi XIV bob 76-modda. T. O’zbekiston. 2023. B.13

² O’zb Res Prezidenti SH.M.Mirziyoyev farmoni 2022-yil 7-mart.

Mazur farmonga asosan, Vazirlar mahkamasi huzurida “Oila ilmiy-amaliy tadqiqot markazi oila instituti sohasida yagona davlat siyosatini yurituvchi tizim sifatida tashkil etildi. Markazning asosiy vazifasi: davlat va jamoat tashkilotlari, parlament siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O’zbekiston oilalarini musthakamlash g’oyasi atrofida birlashtirish, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirib borish, mamlakatda faqat sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat ustuni bo‘la olishini aholi ongiga singdirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish orqali oila institutini mustahkamlash etib belgilangani mamlakatimizda bu borada mutlaqo yangi bosqichdagi sa’y-harakatlar boshlanganidan dalolat beradi.

Oila mustahkam ekan jamiyat ham rivojlanadi. Oilada Ota-onal hurmatini joyiga qo‘yish, ularning aytgan vazifalarini e’tiroz va muhokama qilmasdan bajarish, ular qarib kuchdan qolgan vaqtarda biz yoshlar nafaqat ota-onal qizlarimiz qaynotaqaynonalarni xizmatlarini qilib duolarini olishimiz kerak, vazifa va majburiyatimizdir. Bu dinda ham qonunda ham belgilangan va hattoki yangilangan Konstitutsiyamizda ham bu uchun alohida bob va moddalar ajaratilgan.

- Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi

O‘zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

O‘zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir.³

-Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.⁴

Oilaviy ziddiyatlar. Afsuski, zamonaviy jamiyatda oilaviy nizolar dolzarb mazvzudir. Har qanday oila o‘z hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi. Ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar, manfaatlar, sharoitida amalga oshiriladi. Oilaviy nizolar quyidagilarga bo‘linadi: er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, bobo-buvilar va nevaralar. Oilaviy munosabatlarda asosiy rolni nikohdagi nizolar egallaydi. Nikohdagi nizolarning paydo bo‘lishiga tashqi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab oilalarning moddiy-ma’naviy munosabatlarning yomonlashuvi, turmush o‘tog‘laridan birini yoki ikkalasining ortiqcha ish bilan bandligi, ularning bittasi normal ishlmasligi, ularning birini uyda uzoq vaqt yo‘qligi, bolalarni bolalar muassasalariga yoki boshqa muassasalarga joylashtirish imkonini yo‘qligi va yana bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.⁵

Bunday ziddiyatlarning oldini olish uchun ota-onalar o‘zlari farzandlariga namunali ota-onal va oila bo‘lishilari shart. Ota-onal farzandlarini yaxshi tarbiyalash, yoshlik chog‘laridan oilada o‘zini tutish, kimga qanday munosabatada bo‘lish, oila

³ O’zb Res Oila kodeksi I bob. 4-modda

⁴ O’zb Res Konstitutsiyasi XIV bob 80-modda. T.O’zbekidton B.19

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/oila-tushunchasi-va-oiladagi-ijtimoiy-munosabatlar-tizimi>

qurgach ma'suliyatni his qilishlarni, qaynona-yu qaynotaga qanday munosabatda bo'lish kerakligini o'rgatib borsa, faqat ilm jihatdan emas balki diniy jihatdan ham tarbiyalab borsalar bunday ziddiyatlar, urush janjallarning, oxir oqibatda ajrimlarning ancha oldini olgan bo'lar edilar.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, oila jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi sababli ularni har tomonlama o'rganish, ulardagi turli hildagi muammolarni hal qilish, yechim qidirish, ularning oldini olish, jamiyatimiz uchun munosib oila tarbiyalashimiz, qanday muammo bo'lsa ham ularni hal qilib jamiyatimizdagi namunali oilalar qatoriga qo'shishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi-<http://lex.uz/docs/35869/>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi I bob. 4 modda.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2004y., 21-son, 251-modda
4. Oila ensklopediyasi. 2019 y., "O'zbekiston milliy ensklopediya" nashriyoti. 238 bet.
5. Xolmurodov G'. Oila tushunchasi va oiladagi ijtimoiy munosabatlar tizimi: G'.Xolmurodov // Talqin va tadqiqotlar. - 2022.- № 2.-135 b.

Foydalanilgan saytlar:

1. Lex.uz;
2. Norma.uz;
3. Advice.uz;
4. www.un.org/ru/